

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**CHORIYEV SIROJ HAMZAYEVICH**

**SURXONDARYO VOHASIDA YERYONG‘OQ O‘SIMLIGI  
NEMATODALARI VA ULARNING PARAZIT TURLARIGA QARSHI  
KURASH CHORALARI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Choriyev Siroj Hamzayevich**

Surxondaryo vohasida yeryong‘oq o‘simligi nematodalari va ularning parazit turlariga qarshi kurash choralari..... 3

**Чориев Сирож Хамзаевич**

Нематоды растений арахиса и меры борьбы с их паразитическими видами в Сурхандарьинской долины..... 21

**Choriyev Siroj Hamzayevich**

Measures for the control of peanut nematodes and their parasitic species in the Surkhondaryo oasis..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**CHORIYEV SIROJ HAMZAYEVICH**

**SURXONDARYO VOHASIDA YERYONG‘OQ O‘SIMLIGI  
NEMATODALARI VA ULARNING PARAZIT TURLARIGA QARSHI  
KURASH CHORALARI**

**03.00.06 - Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus - 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1180 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (<http://www.ziyo.net>) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xurramov Shukur Xurramovich</b> biologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Juginisov Tangirbergen Isaevich</b> biologiya fanlari doktori, dotsent  <b>Saidova Shoira Olimovna</b> biologiya fanlari falsafa doktori, kichik ilmiy xodim
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashining 2025 yil 13 mart kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47; faks: (+99861) 223-60-78; E-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№256-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» fevral kuni tarqatildi.  
(2025 yil «25» fevraldagi № 2-raqamli reestr bayonnomasi)



**M.A.Jumanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., professor

**M.K.Begjanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, b.f.d.,  
dotsent

**Y.I.Ametov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida parazit fitonematodalarning madaniy ekinlarga keltirib chiqaradigan iqtisodiy zarari tobora ortib bormoqda, jumladan, ma'lumotlarga qaraganda parazit fitonematodalar zarari dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi ekinlariga yillik 358,24 mlrd. AQSH dollari miqdorida ekanligi qayd etilgan<sup>1</sup>. Hozirgi kunda bu parazit fitonematodalar qishloq xo'jalik ekinlari jumladan, yeryong'oq o'simligida ham hosildorlikning keskin kamayishiga, shuningdek, o'simliklar hosil bermay, vegetatsiya davrining erta tugashiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, yeryong'oq o'simligining nematodalar faunasini, ekologiyasini, o'simlik vegetatsiya davrida tashqi muhit omillariga bog'liq holda parazit nematodalarning populyatsiya dinamikasini, tarqalish xususiyatlarini o'rganish asosida ularga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini ishlab chiqish va bu qarshi kurash usullarini qishloq xo'jaligi amaliyotiga tadbqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida hozirgi kunda qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan yeryong'oq yetishtirishda sezilarli katta iqtisodiy zarar keltiradigan parazit nematoda turlarini aniqlash, keng tarqalgan fitoparazit turlariga samarali qarshi kurash usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yeryong'oq o'simligi nematodalari faunasining bioekologik xususiyatlari, shuningdek nematodalarni taksonomik va ekologo-faunistik tahlil qilish, yeryong'oq o'simligining butun vegetatsiya davrida parazit nematodalar bilan zararlanishini va ular ta'sirida o'simlikda kelib chiqadigan kasallik belgilarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholi ehtiyojini turli xildagi qishloq xo'jalik ekinlaridan olinadigan sifatli ekspertbop mahsulotlar bilan ta'minlash, ularning hosildorligini intensiv ravishda oshirish orqali, sohaga eng so'nggi ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga bugun kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, turli agrotsenozlardagi nematodalar faunasining turlar tarkibi, bioekologik xususiyatlari, parazit nematoda turlariga qarshi zamonaviy va uyg'unlashgan kurash tadbirlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish orqali muayyan samarali natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>2</sup> «...qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish» kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda yeryong'oq o'simligida keng tarqalgan parazit nematodalar faunasi va parazit nematodalarning yeryong'oq o'simligini zararlash darajasini aniqlash hamda ularga qarshi uyg'unlashgan samarali kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qishloq xo'jalik amaliyotiga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-sentabrdagi «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-

<sup>1</sup> Abd-Elgawad M.M.M., Askary T.H. Impact of phytonematodes on agriculture economy. In *Biocontrol Agents of Phytonematodes*; CABI: Wallingford, UK, 2015. pp. 3-49.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni<sup>3</sup>, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 2544-1-son “Respublikada karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori<sup>4</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa bir qator me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. “Qishloq xo'jaligi, bitexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida nematodalar faunasini, ekologiyasini, parazit turlarning o'simliklarga keltirib chiqaradigan zarari va ularga qarshi kurash choralari, shuningdek, zararlanishining oldini olish choralari, nematodalar populyatsiyasining biotik, abiotik va antropogen omillarga munosabati, nematodalarning morfo-anatomik tuzilishi to'g'risida manbalar bir qator xorijlik olimlardan: W.S.Bos (1977), H.R.Patel va boshq. (1986), D.W.Dickson va boshq. (1988, 2005, 2007), S.Basson va boshq. (1991, 1993), M.Bagayoko va boshq. (2000), G.R.Stirling va boshq. (2006), J.M.Charchar va boshq. (2009), S.Steenkamp va boshq. (2010, 2016), P.M.Guimaraes va boshq. (2010, 2017), X.Li va boshq. (2015), J.D. Eisenback (2018), Y.Weimin (2018, 2019), Z.J.Grabau (2018, 2020, 2022), Ch.Liu va boshq. (2019), F.O.Adenike (2020), H.A.Osman va boshq. (2020, 2021), T.Radhakrishnan va boshq. (2021), C.A.Dichusa va boshq. (2021), W.Ravelombola va boshq. (2022), L.Wu va boshq. (2023), A.Nyandiala va boshq. (2023) kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida yeryong'oq o'simligi nematodalari L.W.Boyle (1950), N.A.Minton va H.B.Gillenwater (1953), Sh.X.Xurramov (1990) lar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda esa yeryong'oq o'simligida uchrovchi nematodalar Sh.X.Xurramov (1990), A.Sh.Xurramov va A.B.Choriyev (2017) lar tomonidan o'rganilgan. Biroq, shu kungacha olib borilgan tadqiqotlar O'zbekistonning jumladan, Surxondaryo vohasida yeryong'oq o'simligi nematodalar faunasining turlar tarkibi, populyatsiya zichligi, ekologiyasi va ularning yeryong'oq o'simligi bilan o'zaro munosabati to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Shu sababli, Surxondaryo viloyati hududlaridagi yeryong'oq o'simligida uchrovchi nematodalarning faunasining turlar tarkibi, populyatsiya dinamikasining mavsumiy

---

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ПФ-5853-сон “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини янада ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019-йил 23-октябр.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил 22-декабрдаги ВМ 2541-1-сон “Республикада карантиндаги зараркундалар, ўсимлик касалликлари ва бегона ўтларнинг рўйхатини ” тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори.

o'zgarishini aniqlash, parazit turlaridan o'simliklarni himoya qilishda qarshi kurashning ekologik jihaddan bezarar, iqtisodiy arzon usullarni amaliyotga tadbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Surxondaryo viloyati faunasi, biologik xilma-xilligi, zararkunandalarini tadqiq qilish, aniqlash va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari" mavzusi (2020-2024) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Surxondaryo vohasi sharoitida yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida uchrovchi nematodalar faunasi tarkibini aniqlash hamda keng tarqalgan parazit fitonematodalarga qarshi uyg'unlashgan samarali kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Surxondaryo vohasi yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida uchrovchi nematodalarning faunistik kompleksini aniqlash;

yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasidan topilgan nematodalarni taksonomik hamda ekologik tahlil qilish;

yeryong'oq o'simligining vegetatsiya davrida nematodalarning sindinamikasi va autdinamikasini o'rganish, shuningdek, dominant turlarni aniqlash;

yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida uchrovchi parazit nematoda turlarining tarqalishini o'rganish;

yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida qayd etilgan parazit nematodalarga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyeksi** Surxondaryo vohasi yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida uchrovchi nematodalar kompleksi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Surxondaryo viloyati yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida topilgan nematodalarning faunasi, ekologiyasi, dinamikasi va parazit turlarining bioekologik xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada zoologik, ekologik, fitogelmintologik, parazitologik, morfometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo vohasi yeryong'oq o'simligi ildizi va rizoferasida nematodalarning zamonaviy holati tahlil qilinib, 136 tur nematodalar aniqlangan;

ilk bor O'zbekiston sharoitida yeryong'oq o'simligi nematodalar faunasi uchun 28 tur fitogelmint qayd etilgan;

nematodalarning ekologik guruhlari va ularning o'simliklar bilan trofik aloqalari ochib berilgan;

yeryong'oq o'simligining vegetatsiya davrida nematodalarning populyatsiya dinamikasining mavsumiy o'zgarishlari asoslangan;

yeryong'oq o'simligida uchrovchi parazit nematodalarga qarshi uyg'unlashgan profilaktik, agrotexnik, fizikaviy, kimyoviy qarshi kurash usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida fitonematodalarning turlar xilma-xilligini aniqlash, dominant turlarining ulishini monitoring qilish, ularning tadqiqot hududida tarqalish xususiyatlarini baholash usublari ishlab chiqilgan;

yeryong‘oq o‘simligini fitonematodoz kasalliklari bilan zararlanishidan oldini olish choralari va parazit nematodalariga qarshi samarali kurash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida fitogelmintologiya, parazitologiya sohalarining klassik va zamonaviy usullar hamda yondashuvlari asosida natijalarning olinganligi va nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, morfometrik ma‘lumotlar zamonaviy dasturlar yordamida statistik tahlil qilinganligi, nufuzli nashrlarda chop etilganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Surxondaryo vohasida yeryong‘oq o‘simligi nematodalarining turlar tarkibi aniqlanganligi, sistematik va ekologik tahlilining amalga oshirilganligi, yeryong‘oq o‘simligining vegetatsiya davrida nematodalar populyatsiya dinamikasining mavsumiy o‘zgarishlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Surxondaryo vohasi yeryong‘oq o‘simligida uchrovchi ildiz bo‘rtma nematodalarining tarqalishi va zarari o‘rganilganligi, ekologik-faunistik kompleksi aniqlanganligi, ildiz bo‘rtma nematodalariga qarshi kurashning atrof muhit uchun ekologik bezarar bo‘lgan solyarizatsiya usuli hamda samarali kimyoviy (vidat, nematorin) usullar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo vohasida yeryong‘oq o‘simligi nematodalari va ularning parazit turlariga qarshi kurash choralari yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Fermer xo‘jaliklari xodimlari uchun amaliy qo‘llanma sifatida yaratilgan “Yeryong‘oq o‘simligini parazit nematodalardan himoya qilish choralari” nomli tavsiyanomasi Surxondaryo viloyati fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan Surxondaryo vohasining fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 13-maydagi 01/03-857-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Surxondaryo vohasi yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida uchrovchi nematodalarni aniqlash, ekologiyasini asoslash, mavsumiy dinamikasini o‘rganish va yeryong‘oq o‘simligini parazit nematodalardan himoya qilish imkonini bergan.

Ildiz bo‘rtma nematodalari bilan zararlangan tuproqlardagi yeryong‘oq o‘simligida nematodalarga qarshi Vidat L. 24% preparatini qo‘llash bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar (50, 70, 90 ml/m<sup>2</sup> sarf meyori) Surxondaryo vohasining Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Sulton Azizbek Paxtakori”, “Sharof O‘sarov” va “Sherdanaqulov Eshpo‘lat” fermer xo‘jaliklari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 28-maydagi 05/06-04-231-son

ma'lumotnomasi). Natijada, parazit nematodalarga qarshi 89,1% biologik samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Ildiz bo'rtma nematodalariga qarshi solyariatsiya usulini qo'llash yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar (3 xil variantda rangsiz va qora plyonkalar yordamida hamda ochiq maydonda) Surxondaryo vohasining Qumqo'rg'on tumanidagi "Sulton Azizbek Paxtakori", "Sharof O'sarov" va "Sherdanaqulov Eshpo'lat" fermer xo'jaliklari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 28-maydagi 05/06-04-231-son ma'lumotnomasi). Natijada, solyariatsiya usulini parazit nematodalarga nisbatan qora polietilen plyonka yordamida qo'llanilganda 90,3%, rangsiz polietilen plyonka yordamida qo'llanilganda esa 87,8% biologik samadorlikka erishilgan hamda fermer xo'jaliklari va shaxsiy tomorqalarda yeryong'oq o'simligi hosildorligini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'xati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yeryong'oq o'simligi nematodalarining o'rganilish tarixi**» deb nomlangan birinchi bobida jahonda, MDH va O'zbekistonda yeryong'oq o'simligi nematodalarning o'rganilish holati tahlil etilgan. Dissertatsiya mavzusi doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish natijasida Respublikamizning Surxondaryo vohasida yeryong'oq o'simligi nematodalarini o'rganishga juda kam e'tibor berilganligini qayd qilish mumkin. Bu borada olib borilgan ishlar, asosan, fauna tarkibi va ayrim parazit turlarni qayd qilishdan iborat

bo'lgan. Tahlil qilingan tadqiqotlarda yeryong' oq o'simligi nematodalari faunasi va parazit turlariga qarshi kurash chora-tadbirlari o'rganilmagan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobini «**Tadqiqot hududining tuproq-iqlim va geografik tavsifi, tadqiqotning material hamda uslublari**» deb nomlangan, Ushbu bobda tadqiqot o'tkazilgan hududning qisqacha tuproq-iqlim sharoiti, yig'ilgan material hajmi va mazkur ishni bajarish jarayonida foydalanilgan usullar to'g'risida ma'lumot berilgan. Yeryong' oq o'simligidan ildiz va tuproq namunalarini yig'ishda marshrut va statsionar usullaridan, yig'ilgan namunalardan nematodalarni ajratib olish, ularni fiksatsiya qilish, vaqtinchalik va doimiy preparatlar tayyorlash, turlarni aniqlashda fitogelmintologik va zoologik usullardan, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tahlil qilishda statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot ishlari 2020-2023-yillar davomida Surxondaryo vohasining Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor, Muzrabot, Termiz, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Oltinsoy, Denov, Uzun hamda Sariosiyo tumanlarida olib borildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Yeryong' oq o'simligidan namunalar olingan joylar**

Nematodalar faunasi va tarqalishini o'rganish uchun 28 ta fermer xo'jaliklarining yeryong' oq agrotsenozlaridan 476 ta ildiz va 476 ta tuproq (rizosfera) namunalari marshrut usuli yordamida yig'ildi. Yeryong' oq o'simligining vegetatsiya davrida nematodalar sonining dinamikasi va ularning o'simlik organlarida tarqalishi hamda rizosferadagi ko'rsatkichlari aniqlash maqsadida Surxondaryo vohasi Qumqo'rg'on tumaniga qarashli "Sulton Azizbek Paxtakori" fermer xo'jaligida 2022-2023 yillar davomida olib borildi. Materiallar 12 oy (may-oktabr) davomida o'ning 5 va 20 sanalarida olinib, jami 120 ta tuproq va 120 ta ildiz namunalari yig'ildi va ilmiy tahlildan o'tkazildi.

Yig'ilgan ildiz va tuproq namunalari Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Zoologiya kafedrasiga tegishli bo'lgan "Gelmintologiya ilmiy laboratoriyasi"da tahlil qilindi. Nematodalarni ildizi va tuproqdan ajratib olishda Bermanning "Voronkali" usulidan foydalanildi.

Nematodalarni taksonomik jihatdan tavsiflash va turlarini aniqlash maqsadida 1550 ta vaqtinchalik va doimiy preparatlar Saynخورst usuli asosida tayyorlandi. Nematodalarning tana o'lchamlarini olishda de Man formulasidan shuningdek, nematodalarning turlarini aniqlashda bir qator mahalliy va xorijiy fitogelmintologlarning monografik asarlaridan foydalanildi.

Aniqlangan nematodalar faunasini ilmiy tahlil qilish davomida tuproq va ildiz populyatsiyalarida turlar soni ko'p ammo individlar kamligi yoki aksincha, turlar soni kam bo'lgan populyatsiyalarda individlar zichligi yuqori bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, yeryong'oq fitonematodalar populyatsiyasida turlarining barqarorlik chastotasini baholashda Tichler shkalasidan, nematodalar turlarining individlar foizi bo'yicha dominantlik darajasini hisoblashda Kasprzak va Niedbala shkalasidan foydalanildi.

Olib borilgan tajriba natijalariga asoslangan holda fitoparazit nematodalarga qarshi samarador va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan kurash choralarining tashkiliy-profilaktik, agrotexnik, fizikaviy va kimyoviy qarshi kurash choralari o'rganildi.

Dissertatsiyaning «**Aniqlangan nematodalarning taksonomik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida yeryong'oq o'simligida aniqlangan nematodalar A.A.Paramonov tomonidan evolutsion morfologiya va ekologik – morfologik tahlil usullari asosida ishlab chiqilgan fitonematodalar sistemasi asosida klassifikatsiya qilingan. Shu sistemaga asoslanib, yeryong'oq o'simligida aniqlangan nematoda turlari ikkita kichik sinfga (Adenophorea va Secernenta) bo'lib o'rganilgan. Aniqlangan 136 tur nematodalar ikki kenja sinf 9 ta turkum, 13 ta kenja turkum, 22 ta katta oila, 34 ta oila, 38 ta kenja oila, 55 ta avlodga mansubligi qayd etilgan. Turlar xilma-xilligi bo'yicha Alaimida va Enoplida turkum vakillari eng kam sonda uchragan bo'lsa, aksincha Teratocephalida va Tylenchida turkum vakillari turlar xilma-xilligi bo'yicha ustunlik qiladi.


Dissertatsiyaning «**Aniqlangan nematodalarning faunistik, ekologik tahlili va mavsumiy dinamikasi**» deb nomlangan to'rtinchi bobi to'rt bo'limdan iborat. Bobning birinchi bo'limida yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) o'simligi nematodalari faunasi tarkibi o'rganilgan (1-jadvalga qarang).

Yeryong'oq o'simligining ildizi va rizosferasida 136 turga mansub 16553 ta nematodalar qayd etilgan bo'lib, o'simlik ildizida 103 turga mansub 4538 ta nematoda, rizosferasida 136 turga mansub 12015 ta nematodalar uchraganligi aniqlandi. Aniqlangan fitonematoda turlari individlar foizi bo'yicha dominantlik darajasi (Kasprzak, Niedbala shkalasiga asosan (1981)) hisoblanganda 2 turi dominant, 9 turi subdominant, 12 turi retsedent hamda 113 turga mansub fitonematodalar subretsedent turlar ekanligi qayd etildi. Shuningdek, eudominant turlar tadqiqotlar davomida uchramadi.

**Yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida uchrovchi nematoda turlarining turkumlar bo‘yicha sifatiy ko‘rsatkichlar nisbati**

№	Turkumlar	Jami turlar	Shundan:	
			ildizda	rizosferada
1	Enoplida	2	-	2
2	Mononchida	4	-	4
3	Dorylaimida	18	2	18
4	Alaimida	3	1	3
5	Monhysterida	6	-	6
6	Teratocephalida	32	29	32
7	Rhabditida	12	12	12
8	Aphelenchida	21	21	21
9	Tylenchida	38	38	38
<b>Jami:</b>		<b>136</b>	<b>103</b>	<b>136</b>

Aniqlangan 136 turga mansub 16553 individlar soni turkumlar bo‘yicha barqarorlik chastotasi (Tichler shkalasiga asosan) tahlil qilinganda 66 (48,53 %) turga mansub 4905 (29,63 %) individ tasodifiy turlar (Enoplida, Mononchida, Dorylaimida, Alaimida, Monhysterida, Rhabditida, Aphelenchida turkumlariga mansub) , 70 (51,47 %) turga mansub 11648 (70,37 %) individ beqaror turlar (Teratocephalida, Tylenchida turkumiga mansub) sifatida qayd etildi. Doimiy va mutloq doimiy bo‘lgan turlar uchramadi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Yeryong‘oq o‘simligida uchrovchi nematoda turlarining barqarorlik chastotasi bo‘yicha taqsimlanishi**

Aniqlangan 136 tur nematodalarning 28 turga mansub fitogelmintlar O‘zbekiston sharoitida yeryong‘oq o‘simligi nematodalar faunasi uchun ilk bor uchraganligi qayd etildi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi bo‘limida yeryong‘oq ildizi va rizosferasida aniqlangan nematodalar A.A.Paramonovning ekologik klassifikatsiyasiga asosan ekologik guruhlar bo‘yicha tahlil qilingan bo‘lib, pararizabiontlar – 27 turni

(aniqlangan barcha turlarning 19,85%), eusaprobiontlar – 13 turni (9,56%), devisaprobiontlar – 34 turni (25,00%), maxsus kasallik keltirib chiqarmaydigan fitogelmintlar – 39 turni (28,68%) va maxsus kasallik keltirib chiqaradigan fitogelmintlar – 23 turni (16,91%) tashkil etdi.

To‘rtinchi bobning uchinchi bo‘limida yeryong‘oq o‘simligi nematodalar faunasining sindinamikasi tahlil qilingan. Olib borilgan sindinamik tahlillar natijasida yeryong‘oq ildizi va rizosferasida 63 turga mansub nematodalar qayd etilgan. Yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida nematodalar turlar soni va individlar populyatsiya zichligining minimal darajagacha pasayishi yoki aksincha maksimal darajagacha yetishida nafaqat oziqa muhiti balki, edafik omillardan ya‘ni tuproq namligi va tuproq harorati muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, tuproqda namlikning minimum darajaga tushishi va unga teskari korrelatsiyada haroratni ko‘tarilishi fitoparazit nematodalar uchun cheklovchi omil ekanligi aniqlandi.

To‘rtinchi bobning to‘rtinchi bo‘limida yeryong‘oq o‘simligi nematodalar faunasining autdinamikasi tahlil qilingan. Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus dihystra* va *Pratylenchus pratensis* parazit fitogelmint turlarining populyatsiyasi zichligi, boshqa fitogelmint turlaridan ancha yuqori ekanligi aniqlandi va ularning autdinamikasi o‘rganildi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi «**Yeryong‘oq o‘simligi parazit nematodalari va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari**»ga bag‘ishlangan bo‘lib ikki bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limi yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida uchrovchi parazit nematodalar faunasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar davomida yeryong‘oq ildizi va rizosferasida 136 turga mansub fitonematodalar topilgan bo‘lib, shulardan 23 turi haqiqiy fitoparazit nematodalar ekanligi qayd etildi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### Yeryong‘oq o‘simligida qayd etilgan parazit nematoda turlari

№	Nematoda turlari	Individlar soni	%
1	<i>Xiphinema diversicaudatum</i>	40	1,01
2	<i>X.pachtaicum</i>	70	1,77
3	<i>X.elongatum</i>	44	1,11
4	<i>Tylenchorhynchus brassicae</i>	89	2,25
5	<i>T.tener</i>	98	2,48
6	<i>Bitylenchus dubius</i>	240	6,08
7	<i>Merlinius brevidens</i>	226	5,73
8	<i>Rotylenchus robustus</i>	129	3,27
9	<i>Helicotylenchus pseudorobustus</i>	53	1,34
10	<i>H.digonicus</i>	194	4,92
11	<i>H.dihystra</i>	535	13,55
12	<i>H.digitiformis</i>	191	4,84
13	<i>H.erythrinae</i>	225	5,70
14	<i>H.multicinctus</i>	52	1,32
15	<i>Pratylenchus pratensis</i>	464	11,76
16	<i>P.brachyurus</i>	39	0,99
17	<i>P.penetrans</i>	155	3,93

18	<i>Meloidogyne incognita</i>	118	2,99
19	<i>M.javanica</i>	90	2,28
20	<i>M.arenaria</i>	113	2,86
21	<i>Paratylenchus bukowinensis</i>	35	0,8
22	<i>P.nanus</i>	185	4,69
23	<i>Ditylenchus dipsaci</i>	562	14,24
	<b>Jami:</b>	<b>3947</b>	<b>100</b>

Aniqlangan ushbu fitoparazit turlar ikkita kenja sinf, ikkita turkum, to‘rtta kenja turkum, beshta katta oila, sakkizta oila, to‘qqizta kenja oila va o‘nta avlodga mansubdir.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida qayd etilgan 23 turga mansub fitoparazit nematodalarning tana o‘lchamlari asosida hamda de Man formulasidan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan morfometrik ko‘rsatkichlarni statistik tahlil qilinib, har bir turning o‘rtacha arifmetik kattaligi, o‘rtacha arifmetik xato hamda o‘zgaruvchanlik koeffitsienti aniqlandi.

Beshinchi bobining ikkinchi bo‘limi yeryong‘oq o‘simligi parazit nematodalariga qarshi kurash chora tadbirlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlarimizda tajriba-sinov natijalariga tayangan holda yeryong‘oq o‘simligida uchrovchi parazit nematodalarga qarshi uyg‘unlashgan tashkiliy-profilaktik, agrotexnik, fizikaviy, kimyoviy qarshi kurash usullari ishlab chiqildi.

#### **Qarshi kurashning tashkiliy – profilaktik usuli.**

Yeryong‘oq urug‘i ekiladigan maydonning tuproq namunalari fitogelmintologik tekshiruvdan o‘tkazilishi zarur. Masalan, Xiphinema avlodiga mansub xanjarsimon nematodalar yeryong‘oq o‘simligi uchun eng xavfli fitopatogenlar hisoblanib, o‘simliklarda virusli kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Eng xavflisi viruslarning bir o‘simlikdan ikkinchi o‘simlikka tashilishida bir dona xanjarsimon fitonematodaning o‘zi yetarli hisoblanadi. Shunga asoslangan holda, yeryong‘oq urug‘lari ekilishiga mo‘ljallangan ekin maydonlarida tuproq tahlilini o‘tkazib, fitonematodalar populyatsiya zichligini aniqlash va to‘g‘ri baholash muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega. Bu esa kelajakda ushbu maydonlarda yeryong‘oq ekish qanchalik samara berishi mumkinligi haqida aniq xulosani beradi.

Yeryong‘oq urug‘larini ekish uchun ma‘lum bir maydonlarni tanlashdan oldin, ushbu maydonda oldin ham yeryong‘oq yoki boshqa turdagi ekinlar ekilganligi, shuningdek, keng bargli o‘t o‘simliklardan - momoqaymoq (*Taraxacum officinale*) kabilarning mavjudligi haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish lozim. Chunki momoqaymoqlar virus tashuvchi xanjarsimon fitonematodalarni o‘zida saqlovchi rezervuar hisoblanadi. Agar momoqaymoq o‘simligi ekin maydonlarida mavjudligi aniqlangan taqdirda ushbu dalaning viruslar bilan zararlanganlik effekti yuqoriligidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida fitoparazit nematodalarning ko‘payib ketishini oldini olishning eng samarali usullaridan biri ya‘ni dalalarni begona o‘tlardan tozalash hisoblanadi.

Yeryong‘oq urug‘larini ekishdan oldin urug‘larni saralab olish, ya‘ni doni yirik urug‘larni tanlanishi, doni puch, mayda, bujmaygan urug‘larni esa ekish tavsiya

etilmaydi. Shuningdek, kasallikka chidamli yeryong‘oq navlarining urug‘larini ekish maqsadga muvofiqdir.

Ekin maydonlarida yeryong‘oq o‘simligini to‘g‘ri sug‘orish tizimini ishlab chiqish muhimdir. Chunki, parazit fitonematodalar uchun namlik eng faol biologik jarayonlarni ta‘minlab beradi. Masalan, o‘troq hayot kechiruvchi bo‘rtma nematodalar zararlangan maydonlardan sog‘lom ekin maydonlariga keng tarqalishi mumkin. Shuning bilan birga zararlangan begona o‘t qoldiqlari ham suv ( $1\text{m}^3$  suvda 400-1300 tagacha lichinkalar) oqimi bilan birga fitonematodalarni migratsiyasini ta‘minlashda transport vazifasini bajarishi mumkin. Agarda to‘g‘ri sug‘orish tizimi joriy etiladigan bo‘lsa, fitonematodalar migratsion jadalligi uchun imkoniyatlar cheklanadi.

Qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladigan texnikalar, asbob-uskunalar, ishchi xodimlarning oyoq kiyimlari va ishchi kiyimlar bir dalada foydalanilgandan so‘ng tuproq qoldiqlaridan tozalanib, so‘ngra, 5-6 % li ammiakli selitra yoki natriy xlor eritmasi bilan ishlov berilishi muhimdir.

Yeryong‘oq urug‘larini ekishdan oldin tuproqni yuqori haroratda quyosh nuri ta‘sirida sterillash muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Bunda tuproq bir yil yozning iyun-iyul oylarida 30-50 sm chuqurlikda shudgorlanadi, biroq sug‘orilmaydi. Mazkur chora-tadbirlar orqali begona o‘t va fitoparazit nematodalar populyatsiyasining keskin kamayishiga erishish mumkin.

#### **Agrotexnik qarshi kurash usuli.**

Yeryong‘oq oralig‘idagi tuproqda optimal namlik bo‘lgan sharoitda organik o‘g‘itlar bilan ishlov berish, mavjud begona o‘t qoldiqlaridan tozalash uchun eng samarali tadbirlardan biri hisoblanadi. Bunda begona o‘t qoldiqlari tezda parchalanadi, shuningdek, tuproqning umumiy biologik faolligi oshishi bilan birga yirtqich zamburug‘lar va mikroorganizmlarning faolligi ortishi natijasida begona o‘t qoldiqlarida rivojlanayotgan fitopatogen nematoda lichinkalar ular uchun ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

Fitoparazitlar uchun xo‘jayin o‘simliklardan ajratib olingan ekstrakt qo‘shilgan suv bilan erta tuproqni sug‘orish natijasida anabioz holatda bo‘lgan parazit lichinkalarni faollashtirish orqali ularni o‘simlik-xo‘jayinning trofik ildizlarini topishga qaratilgan motor faolligi orttiriladi. Natijada uzoq muddatli harakat fitoparazit tanasidagi zahira ozuqani yo‘qotilishiga sabab bo‘lib, oqibatda lichinkalar xo‘jayin o‘simlikni topa olmay nobud bo‘ladi.

Fitoparazit nematodalar bilan zararlangan ekin maydonlariga ekish zaruriyati tug‘ilganda, o‘simlik urug‘larini ertaroq ekish maqsadga muvofiqdir. Bunda nematodalar tuproqdan o‘simlikka migratsiya qilishga ulgurmay, o‘simlik ko‘chatlari tezroq o‘zini tiklab oladi.

Almashlab ekish amaliyotini joriy etish kerak, chunki bug‘doy ekilgandan keyin yeryong‘oq o‘simligida fitopatogen nematoda lichinkalarining populyatsiya zichligini 17-18 % gacha, arpa ekilgan maydonlarda 15-16 % gacha kamayishiga erishish mumkin.

Yeryong‘oq o‘simligini boshqa nematodalarga chidamli o‘simlik bilan qator oralab ekish maqsadga muvofiqdir. Bu esa parazit nematodalarining migratsiya jadalligini kamaytiradi.

Fitoparazit nematodalarining zararlash darajasini kamaytirishda ekin maydonlariga organik va mineral o‘g‘itlarni me‘yorida solish hamda muntazam qo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘simlik ildizlarini qisqa muddatda rivojlantirish orqali erishish mumkin.

### **Fizikaviy qarshi kurash usuli.**

Tadqiqotlarimiz davomida yeryong‘oq o‘simligi ildizi va rizosferasida qayd etilgan (*Meloidogyne incognita*, *M.javanica*, *M.arenaria*) fitoparazit nematodalarga qarshi fizikaviy kurashda solyarizatsiya usulidan foydalandik. Tajribalar 2022 yilda Surxondaryo vohasi Qumqo‘rgon tumanining “Sulton Azizbek Paxtakori” fermer xo‘jaligining fitoparazit nematodalar bilan kuchli zararlangan ekin maydonlarida olib borildi. Qumqo‘rg‘on tumanida har yilgi yoz mavsumida (iyun-iyul) hududning soya joylarida harorat 38-39°C ni tashkil etgan bo‘lsa, quyosh nuri tik tushadigan ochiq maydonlarda 40-45°C ni tashkil etdi.

